
Viloyat hokimligi tomonidan o'quvchilar uchun ajratilgan bayram sovg'alari egalariga topshirildi

Bugun viloyat hokimi o'rinbosari, oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i Komilaxon Kavlonova hamda shahar hokimi o'rinbosari Dilshodaxon Xolmatovalar shahrimizdagi 3 ta ehtiyojmand oilalarda yashovchi 5 nafar o'quvchilarga maktab formalari, zaruriy o'quv-qurollari hamda sumkalari bo'lgan bayram sovg'alarini o'z egalariga yetkazdilar.

Mas'ul rahbarlar mazkur xonadonlarda yashovchi oila vakillari bilan suhbatlashishdi. Davlatimiz mustaqilligining 32 yilligi bayrami bilan qutlashdi.

Shuningdek, oila vakillarining muammo va kamchiliklarini o'rganishdi. Hududlardagi xotin-qizlar faollariga tegishli topshiriqlar berildi. Yosh avlodga ta'lim jarayonlarida puxta bilim olib yuksak marralarni egallashlarini tilashdi.

Xonadon vakillari farzandlari uchun ko'rsatilgan yordam va g'amxo'rlikdan mamnun bo'lishib, o'z minnatdorchiliklarini bildirishdi.

2023-09-07 08:47:55